

## O‘ZBEK KINOFILMLARIDA MILLIY MUSIQALARDAN FOYDALANISH HOLATI: MUAMMO VA YECHIMLAR

**Karimov Dilshod**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institute, “Cholg‘u ijrochiligi” mutaxassisligi 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Mamlakatimiz kino san’ati bir asrdan ziyod tarixga ega bo‘lib, o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Bu davr mobaynida o‘zbek kinosining poydevori yaratilib, u xalqimizning madaniy-ma’naviy hayotida muhim o‘rin egalladi. So‘ngi yillarda milliy kinematografiya rivojiga davlatimiz tomonidan qaratilayotgan katta e‘tibor natijasida sohada muayyan yutuqlarga erishildi. Mazmun va shakl jihatidan rang-barang kino asarlar yaratilib, ular tomoshabinlar e‘tiborini qozondi. Biroq biz ushbu maqola orqali o‘zbek kinofilmlarida milliy musiqalar salmog‘ining kamligi va sabablari xususida so‘z yuritishga harakat qildik.

**Kalit so‘zlar:** kinematografiya, milliy musiqa, ma’naviyat, qadriyat, kinoindustriya, san’at, musiqa terapiyasi, millat kelajagi.

Shubhasizki, jamiyat taraqqiyotini san'atsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki inson jamiyatdan tashqarida yashay olmaganidek, san'atsiz ham yashay olmaydi. Shu sababli san'at har bir millat ma'naviyatining bir bo'lagidir, deya qat'iy ayta olamiz. Ma'naviyatni keng targ'ib etuvchi yetakchi san'at turlaridan biri kinodir. Chunki bu san'at turi turli yoshdagi tomoshabinlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. U turmush tarzimizning bir bo'lagiga allaqachon aylanib ulgurgan. Kino voqelik hamda tomoshabin o'rtasida ma'naviy ko'prik vazifasini o'tab, insonga ruhiy ozuqa beradi.

Istiqlol yaratib bergan keng sharoitlar tufayli barcha san'atlar singari kino san'ati ham tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning 2018-yil 24-iyuldagi “Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorida o'zbek milliy kino sanoatini rivojlantirish, uning kino bozorida raqobatbardoshligini oshirish maqsadida bir qator vazifalar belgilab berildi. Bundan tashqari, ushbu islohotning davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasini ham aytish mumkin. Murojaatnomada kinomatografiyani 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi hamda “Kinomatografiya to'g'risida”gi Qonun ishlab chiqilishi muhim masalalar qatorida sanab o'tildi. Bu kabi islohotlarning amalga oshirilishi kino sohasining har tomonlama keng rivojlanishiga yo'l ochib beradi, deyish mumkin.

Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan o‘zbek milliy musiqa san’ati o‘zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an‘analari bilan ma’naviy hayotimizda muhim o‘rin egallaydi. Asrlar davomida ulug‘ shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoyiligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san’at nafaqat yurtimiz va Sharq mamlakatlarida, butun dunyo miqyosida katta shuhrat va e‘tibor qozongan. O‘zbek milliy musiqa san’atining gultoji bo‘lgan “Shashmaqom” YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e‘tirof etilgani hamda uning Reprerentativ ro‘yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig‘idir. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘zbek milliy musiqa san’atini o‘rganish va rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, o‘zbek “Shashmaqom”ni nota matnlarining nashr etilishi va ularga muvofiq ravishda maqom kuy-qo‘shiqlarining magnit lentalariga yozib olinishi ulkan ilmiy-madaniy

ahamiyatga ega voqea bo'ldi. Shu o'rinda boy o'zbek milliy musiqa san'atining o'zbek kinofilmlaridagi o'rni borasida fikr yuritadigan bo'lsak, ularning salmog'i ko'p emasligi ko'nglimizni xira qiladi.

Kino, birinchi navbatda, san'at, uni sanoat darajasiga ko'tarish kerak. Sanoat darajasida rivojlantirish uchun sohani puxta o'rganish, har kimga birdek yoqadigan, ham mavzu, ham g'oyaviy jihatdan to'q kinolar suratga olinishi kerak. Asl san'at yaratilsa, uni qadrlaydiganlar sanoat darajasiga ko'taradi. Jahon bozoriga "zamonaviylik" niqobi ostida yaratilgan bir-birini takrorlaydigan kartinalar bilan emas, boy tariximizni aks ettirgan kinolar bilan chiqish kerak. Bu chet ellik investorlarning kino san'atimizga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Ko'pchilik davlat kinosi va o'zbek kinosi tushunchalarini chalkashtiradi. O'zbek kinosi ancha kengroq, shu bilan birga, xususiy pulga suratga olinadigan juda katta xususiy kino segmenti mavjud. Ular sarmoyadorlarni topadilar, aktyorlar va rejissyorlarga o'zlarining cho'ntaklaridan pul to'laydilar, so'ngra tavakkal bilan kinoteatrlarda filmlar namoyish etadilar. Ushbu ulkan qatlamni umuman muhokama qilmaslik biz uchun odatiy hol. Aslida, bu kinematografiyada bozor iqtisodiyotining asosidir. O'tgan yilgacha filmlarning katta qismi xususiy studiyalarda suratga olingan. Ular ba'zi yillarda 100 tagacha film suratga olgan bo'lsa, «O'zbekkino» yiliga 10 tagacha film suratga olgan. Bu yildan boshlab vaziyat o'zgardi. Xususiy «kinochi»lar, shuningdek, Youtubeda ham pul ishlashni bilishadi. Davlat filmlari esa internetdagi norasmiy kanallarga anchadan buyon foyda keltiradi.

Ayni kunlarda o'zbek kinofilmlari atrofida bo'layotgan gap-so'zlar anchayin chuqurlashdi. Axloqsizlikni targ'ib qilayotgan seriallar syujetlarida 18+ kadrlar, o'zbek mentalitetiga nomunosib jarayonlar ko'paygan. O'z nomi bilan milliy seriallarimizda zarracha o'zbekona qadriyatlarni ko'rmaysan kishi. Albatta, ba'zi filmlar bundan mustasno. Bizni qinayotgan savollar esa, nega bugungi kundagi o'zbek kinofilmlarida milliy musiqalarimizning salmog'i kam? Nega o'zbek mumtoz durdonalari milliy seriallarimiz bilan uyg'un holda ommaga yetkazilmayapti? Bugungi kundagi o'zbek kinofilmlarida milliylik qoldimi, degan savolni o'rta tashlasak ham mubolag'a bo'lmaydi. Xo'sh, bunga kinofilmning tashkiliy qismidan tortib sountreklar tayyor bo'lgunga qadar bosh-qosh bo'ladigan rejissyor aybdormi? Yoki bir necha asrlardan buyon o'zbek milliy musiqalarini sevib, ardoqlab tinglab kelayotgan xalqning talabi shu darajada o'zgardimi? Biroq oxirgi voqelar fonidan ma'lumki, jamiyatning katta qismi bugungi kundagi o'zbek kinofilmlari haqida juda salbiy fikrda. Albatta, bunday fikrlar o'zbek kino sanoatida ijobiy o'zgarishlar olib kelishiga umid qilamiz. Kino sanoati sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasi, ishlab chiqilayotgan kino mahsulotlarining o'zini oqlashi va daromad keltirishiga qaratilgan zamonaviy marketing tadqiqotlari va aniq maqsadli kino ishlab chiqarish dasturlarini amalga oshirishga bo'lgan harakat o'zbek filmlarida milliy musiqalarning salmog'ini kamayishiga sabab bo'lishi mumkinligi ehtimoldan holi emas.

Rejissyorlar so'nggi paytlarda xorij kino sanoati ishlab chiqarayotgan kinofilmlaridan namuna olishga, chet el musiqalaridan foydalanishga odatlanib qolishgandrk, go'yo. Ammo, unutmazlik kerakki, xorij kinorejissyorlar o'z madaniyati (agar uni madaniyat deb bo'lsa) dan kelib chiqqan holda seriallar yaratadi. Shunday ekan, xorij kinofilmlarida qo'llaniladigan musiqalar o'z jamiyatlariga mos ravishda tanlanadi. Ammo, chet el rejissyorlar ishlaridan namuna oladigan rejissyorlarimiz o'zbek xalqi va mentalitetini ham inobatga olgan holda, kinofilmlarda o'zbek milliy musiqalaridan keng va samarali foydalanishsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Kino san'ati inson ongi va qalbiga kuchli ta'sir ko'rsata oluvchi beqiyos qudrat va imkoniyatlarga ega. Uning o'ziga xosligi shundaki, kino qahramonlarning ichki dunyosi so'z bilan, o'y-hayollari kinooperator orqali yirik, o'rta va umumiy planlarda rejissyorning topilmasida, kompozitorning qahramon tabiatiga monand kuy-qo'shiq yarata bilishida o'z aksini topadi. To'g'ri tanlangan mavzu, g'oya, muhimi, rejissyorlik yechimi kabi umumlashmalar tomoshabinni film davomida ro'y berayotgan voqea joyiga pinhona yetaklaydi. Kino san'atining o'ziga xos qonun-qoidalari asosida

yaratilgan ekran asari namoyishi davomida tomoshabin kino qahramon yashab turgan makonda u bilan birga nafas oladi, dardlari va shodliklariga sherik bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 2018 yil 24 iyul, PQ-3880-son [Elektron resurs] <http://www.lex.uz/ru/docs/3835308>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020.
3. Rajabiy Yu. Ozbek xalq musiqasi. V-tom. O'zbekiston davlat badiiy adabiyoti. Toshkent: 1959.
4. Rajabiy Yu. Shashmaqom tarixi I-VI. Badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent: 1970.